

Dilorom Xurramova Nurmaxmatovna

Qashqadard viloyati Kitob tumani 69-maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: *Annotatsiya: Ushbu maqola farzand tarbiyasi va unda ota-onaning o'rni, ma'suliyati hamda vazifa va burchlari masalalariga bag'ishlanadi. Shuningdek ushbu maqolada farzand tarbiyasi bu shunchaki tajriba, oddiy ko'rsatma va bilimlar jamlanmasi emas, balki o'z ichiga diniy-axloqiy bilimlar, tibbiyot, etika, psixologiya, pedagogika kabi sohalariga oid bilimlarni ham qamrab oladigan murakkab jarayon ekanligi ta'kidlangan. Shu boisdan bu kichik tadqiqot tarbiyachilar, pedagoglar, psixologlar va ota-onalar uchun muhim ahamiyatga ega.*

Kalit so'zlar: *Oila, jamiyat, ota-ona, farzand, burch, tarbiya, xulq-atvor, ma'naviy yetuklik, sog'lom avlod, psixologiya.*

Psixologlarning e'tirof etishlaricha, bola rivojlanishining har bir davrida uning ongiga o'ziga xos hissiy tuyg'ularni tarbiya dastagi asosidasingdirish lozim. Masalan; "Vatan", "Ota" yoki "Ona" tuyg'ularini ona vujudidagi xali tug'ilmagan bolaning ongiga "alla" aytnb singdirishi maqsadga muvofiq xisoblanadi. Aks qolda bola ongidagi mazkur tuyg'uga bo'lgan tarbiya mezoni etishmovchiligi kelib chiqib, natijada biz kutayotgan bugungi kundagi Vatanparvar darajasida ongi tarbiya topgan yoshlar bo'lib shakllanishda qiynalar ekan. Insonning bosh miya yarim sharlarining doimiy ravishda ma'lumot (informasiya)ga bo'lgan ehtiyoji o'ta yuqori bo'lib, u ongiga etib kelayotgan ma'lumotlarni bu yaxshi yoki bu yomon demasdan, balki, ko'proq salbiy moyillikning etakchiligi asosida qabul qiladi. Inson ongida yaxshi ishlarga nisbatan yomon ishlarni qilishga bo'lgan moyilligi ustun turadi. Shuning uchun ham xalqimiz o'rtasida "yaxshi ishni hamma xam qilavermaydi, yomon ish xammaning qo'lidan keladi" - degan maqol bejizga aytilmagan bo'lib, u miyamizning psixologik xususiyatini e'tirof etadi. Demak, bola tarbiyasida onalar

"alla"si tarbiyaning me'yor mezonini va ma'naviy ong ozuqasi sifatida o'z ta'sirini o'tkazadi, natijada, ongni oziqlantiradi, okibatda bola ongida vatanparvarlik, ota va onaga mehribonlik psixologik his-tuyg'usi va moyillik kurtaklari shakllana boradi. Hosil bo'lgan psixologik moyillik kurtaklari shakllanishini bir daqiqa bo'lsada to'xtatmasdan, bola tug'ilguncha u bilan emosional muloqotlar va tug'ildandan keyin esa, maktab yoshigacha o'yinlar asosida rivojlantirib borish bola tarbiyasidagi eng asosiy psixologik omillardan sanaladi. Bundan tashqari bolaning ruhiy rivojlanishi va ta'lim-tarbiyaning muvaffaqiyatini e'tirof etuvchi ko'plab o'zbekistonlik psixolog olimlar qarashlari ham mavjud. Jumladan, E.G'oziev ta'lim muassasalaridagi psixologik xizmat vazifalarini qayd etish va uning psixologik xususiyatlari, M.G.Davletshin O'zbekistondagi psixologik xizmatning bugungi holati va vazifalarini talqin qilish xususiyatlari, V.A.Tokareva o'quvchi shaxsi taraqqiyoti uchun muhim bo'lgan o'z-o'zini bilish va axloqiy rivojlanish imkoniyatlari, G'.B.Shoumarov xalq ta'limi tizimida psixologik xizmatning joriy etilishi bilan bog'lik; yangiliklar, muammolar va uning echimlari, B.R.Dodirov O'zbekistondagi iqtidorli bolalarni tanlash va tarbiyalash masalalari to'g'risida va boshqa ko'plab psixolog olimlar o'zlarining nazariy va amaliy jihatdan asoslangan fikrlarini berishgan. O'sib kelayotgan yosh avlod ertangi kunimiz, kelajagimizning davomchilari ekanligini hisobga oladigan bo'lsak o'quvchilardagi mavjud psixologik muammolarni, jumladan xulq-atvorida "og'ish"i borlar bilan turli psixoprofilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish bugungi kunda o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Psixologik maslahat psixologik xizmatning obyektiga qarab o'zgarib rivojlanib o'zgarib boradi, bu esa individuallik, shaxsga yo'naltirilganlik tamoyiliga asoslanadi. Shuningdek, quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- Bola tarbiyasidagi qiyinchilikni bartaraf etishning optimal psixologik yo'llarini aniqlash.
- O'smirning ichki ruhiy holatini: maqsadi, hayotga munosabati, o'z-o'ziga ishonchi, irodaviy – hissiy o'zini boshqarishni tahlil etib, shularga mos ravishda maslahat berish.

- Maqsadga erishishda o'smir bilan psixologik birgalikda harakat qilishi.
- Psixologik qiyinlikni bartaraf etish orqali o'smir hayotidagi ijtimoiy, shaxsiy vazifalarni hal etish.
- Ayniqsa, o'smirlar bilan ishlashda uning individual psixologik xususiyatlarini bilish, maslahat berishda aniq maqsad qo'yish.

Qolaversa amaliyotchi psixolog psixologik maslahat berishdan tashqari o'smirlar bilan reja asosida psixokorreksion mashg'ulotlarni yakka va guruhlar asosida olib borishi kerak bo'ladi. Maktablarda amaliyotchi psixologlar tarbiyasi og'ir bolalar bilan ishlashda sinf rahbari ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, otaonalar qo'mitasi, mahalla fuqarolar yig'ini, voyaga yetmagan yoshlar bilan ishlash inspektori, Yoshlar Ittifoqi, hududiy sport va madaniyat tashkilotlari bilan hamkorlikda amalga oshirishi kerak. Psixologlar va pedagoglar tomonidan dezadaptatsiyalangan xulqning oldini olishga qaratilgan bir qator tavsiyalar ham ishlab chiqilgan. Ularning keltirgan tavsiyalariga ko'ra, sinf jamoasi a'zolarida sog'lom psixologik munosabat hissini shakllantirish va bu jamoada tarbiyasi qiyin o'smirlarga nisbatan ijobiy va faol munosabat ruhini keltirish biz aytgan muammolarga barham berar ekan.

Insonni biologik, fiziologik psixologik o'sishining eng murakkab bosqichlaridan biri o'smirlik yosh davridir. Ushbu yosh davri eng murakkab o'zgarishlar, qayta qurishlar davri. Shu bilan birga og'ir inqirozlar, salbiy xolatlar, kechinmalar davri hamdir. Bolalarning balog'at yoshi biologik jihatdan o'ziga xos xususiyatga ega. Bu davr 11- yoshdan 14,15 yoshgacha davom etadi. Ana shu yillar davomida o'g'il- qizlar jismoniy jihatdan tez yetiladi. Butun a'zolarida keskin fiziologik o'zgarishlar sodir bo'ladi. Unda o'pka, yurak, jigar, taloq, buyrak jismlari kattalashadi. Bundan tashqari gavda tuzilishlari ham o'zgaradi. Qo'l – ayoq o'sib, xatto ota – onaning ko'ziga beso'naqay ko'rinadi. Lekin o'smirda qon tomirlari kengayishi boshqa a'zolar o'sishidan orqada qoladi, natijada qon tomirlarda qon bosimi ortadi. Bu esa unda noxushlik kayfiyatini keltirib chiqaradi.

O'smir shaxsi xarakteridagi og'ishlarni shakllanishi ularning tiplarini aniqlash tibbiy psixologik va tibbiyot pedagogik ishlarni aktiv olib borish zarurdir. Bizning

asosiy maqsadimiz aziz o'quvchilarga tarbiyasi "qiyin" o'smirlar xarakteridagi xarakter aktsentuatsiyasining va uning tiplari o'smirlar davridagi deviant xulq – atvor va uning klassifikatsiyasi tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlari haqida fikrlar yuritamiz.

O'smirlar davri yosh davrlari orasida eng ahamiyatli davrlardan biri hisoblanadi. Chunki bu davr shaxs shakllanishidagi asosiy davrdir. O'smirlar davri ayrim maxsus psixologik adabiyotlarda «o'tish davri», «og'ir davr», «inqiroz davri» kabi nomlar bilan ataladi. O'smirlar davrining og'ir, murakkab davr ekanligi ko'plab psixologik, fiziologik, ijtimoiy omillar bilan bog'liq. Bu davrda rivojlanishning barcha jihatlari: jismoniy, aqliy, axloqiy, ijtimoiy va shu kabilarning mazmun mohiyati ham o'zgaradi. Bu davrda o'smirlar hayotida uning ruhiyati, organizmining fiziologik holatlarida, uning ijtimoiy holatida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bu davr taxminan bolaning 5-9 sinflarda o'qish paytiga to'g'ri keladi va 11-12 yoshdan 14-15 yoshgacha davr oralig'ida bo'ladi va bu yosh davrlarining xarakter xususiyatlaridagi o'zgarishlarini psixologik qonuniyat asosida amalga oshirishini bilish maqsadga muvofiqdir.

10-yosh o'smirlar muvozanatli hayotni tez idrok etuvchi, ishonuvchan, ota-onalariga itoatli, tashqi qiyofaga e'tiborsiz bo'lganligi bois bu "oltin yosh" hisoblanadi.

11-yosh organizmda qayta qurish yuz beradi, bolalar g'ayri shuurli, negativlikni namoyon qiladi, kayfiyati tez o'zgaradi, ota-onalariga nisbatan norozilik bildiruvchi.

12-yosh tez jazavaga tushuvchan, dunyoga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi, o'smirda oilasiga nisbatan avtonomlik va tengdoshlariga ta'siri ortadi. Ularda aqllilik, hazil-mutoyibaga moyillik, chidamlilik, tashabbuskorlik, tashqi qiyofa va qarama-qarshi jinsdagilarga e'tibori orta boshlaydi.

13-yosh o'zining ichki dunyosiga e'tiborlik, introvertlikka xos bo'ladiki, ular o'zini o'zi tanqid qilishga, va tanqidlarga nisbatan ta'sirlanuvchan, ota-onalarga tanqidiy munosabat bildiruvchi, do'st tanlovchi, to'lqinlanish va hayojonlanish ortadi.

14-yosh o`smirlardagi introversiya ekstraversiyaga almashinadi, shijoatli, xushmuomila, o`ziga ishonch uyg`onadi, boshqalarga e`tibori ortadi va ular o`rtasidagi farqni ajrata boshlaydi.

15-yosh bu yoshdagilar uchun mustaqillik ortadi, bu esa ularning oila va maktab bilan bog`liq zo`riqishlarga duchor etadi. Ularni guruhli harakat qilishga va guruhdagilarga moslashishga intilish ortadi.

16-yosh o`spirinlar hisoblanib, ularda muvozanatlashuv, hayotdan quvonish, ichki mustaqillik, emotsional barqarorlik, muomalaga moyillik, kelajakka intiluvchanlik ortadi.

Yuqorida sanab o`tilgan holatlar bilan yosh davrlarni xarakterli jihatlarini sharhlab o`tdik, chunki yosh xususiyatlarining psixologik tavsifi, bolalarni xulqatvoridagi o`zgarishlarini baholash imkoniyatini beradi. O`smirlik davri bolalikdan kattalikka o`tish davri sifatida har doim qiyin davr hisoblanadi va shu sababli ham doimo psixolog va sotsiologlarning diqqat markazida bo`lib kelgan. Bu yoshdagi krizis kichik yoshdagi krizisdan ahamiyatli darajada farq qiladi. Bu davrdagi krizis eng uzoq davom etishi, eng shiddatliligi va keskinligi bilan farqlanadi. Bu bosqich davomida bolaning o`ziga va atrofdagilarga bo`lgan munosabati tubdan o`zgaradi va qayta quriladi, hayotiy pozitsiyasi shakllanadi. Bolaning kattalar olamiga kirib borishi bir lahzada ro`y beradigan hodisa emas, balki uzoq davom etuvchi jarayondir. Bunda boladan biologik, psixologik va ijtimoiy tomondan voyaga yetishi talab qilinadi. O`smirlik davrida bolaning ijtimoiy munosabatlarida va dunyoqarashida ham keskin o`zgarishlar sodir bo`ladi. Bu davrga kelib uning qadriyatlarini ham o`zgaradi, ilgari uning uchun qadrli bo`lgan narsalar ahamiyatini yo`qotadi. Bola ilgari o`zi uchun qiziqarli bo`lgan mashg`ulotga umuman befarq bo`lib qolishi yoki aksincha yangi mashg`ulotga qiziqib qolishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. I.Karimov. Barkomol avlod -O`zbekiston taraqqiyatining poydevori. T-1997y.
2. I.Karimov. Ozod va obod Vatan, erkin va faravon hayet-pirovard maqsadimiz.T-2000y.

3. A.K.Munavvarov.Pedagogika.T-1996y.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 iyundagi "Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 472-sonli qarori.